

ARAB TILIDA SO'ROQ VA XABAR MA'NOSIDA KELADIGAN "KAM" SO'ZINING
LUG'AVIY VA GRAMMATIK TAHLILI

Avlaqulov Xusniddin Yusupovich

Tadqiqotchi Yangi Asr Universiteti Mumtoz sharq filologiyasi" (arab tili)

kafedrası o'qituvchisi

E-mail zinnunzinnura@gmail.com

+998977993800

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18335261>**Annotatsiya**

ushbu ilmiy maqolada so'roq va xabar ma'nosidagi "kam (كم)" ning lug'aviy va grammatik tahlil qilish haqida ilmiy izlanish olib borilgan.

Kalit so'zlar: *kam xabariyya, ma'dud, mufrad, kam istifhomiyya, to'ldiruvchi, tamyiz, tushum kelishigi, nakra.*

Kirish

Arab tili ko'p ma'noli iboralar va vositalarga boy bo'lib, ulardan bir "كم" so'zidir. Bu so'z ikki xil ma'noda ishlatiladi: so'roq va xabar ma'nosida. Ya'ni "كم" so'zi ba'zida noma'lum sonni so'rash uchun ishlatilsa (so'roq kam "الاستفهامية كم") deyiladi, ba'zida esa aytilgan xabarni ko'p ekanligini bildirish uchun xabar shaklida ishlatiladi va (xabar kam "الخبرية كم") deb ataladi. Ushbu maqolada ikkala "kam" turining ma'nosi, grammatikasi va qo'llanilishidagi farqlar izohlab beriladi.

Birinchi: So'roq "kam" (الاستفهامية كم)**1.1 Ta'rifi**

So'roq "kam" noma'lum sonni so'rash uchun ishlatiladi.

Misol:

- Nechta kitob o'qiding? (كَمْ كِتَابًا قَرَأْتَ؟)

Bu yerda so'roq qilinayotgan odam nechta kitob o'qiganligi so'ralmoqda.

1.2 Grammatik holati

So'roq "kam" dan keyin keladigan so'z (ya'ni aniqlovchi "tamyiz") har doim "mansub" bo'ladi (ya'ni to'ldiruvchi bo'lib, -ni qo'shimchasi bilan keladi).

1.3 إِعْرَابُهُ (tahlili)

Masalan: كَمْ طَالِبًا حَضَرَ – nechta talaba keldi?

- "كم": so'roq olmoshi bo'lib, gapda xabarni oldingi qismi sifatida kelgan.

- "طالِبًا": aniqlovchi (tamyiz), mansub holatda (ya'ni to'ldiruvchi bo'lyapdi va -ni qo'shimchasi bilan kelyapdi).

- "حضر": fe'l (keldi).

1.4 aniqlovchi (tamyiz) ning shartlari

- Har doim noaniq (نَكْرَة) ism bo'lishi kerak.

- Odatda (مُفْرَد) birlikda bo'ladi.

- Mansub (to'ldiruvchi) bo'lishi kerak.

1.5 Ma'no jihatdan

So'roq "kam" so'ralgan savoldagi sonni qancha ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi, lekin son kichik yoki katta bo'lishi ham mumkin, ammo so'roq "kam" da bu haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi ya'ni sonni qancha bo'lishini ahamiyati yo'q.

Ikkinchi: Xabar beruvchi “kam” (الخبرية كم)

2.1 Ta’rifi

Xabar beruvchi “kam” sonning ko’pligini bildirish uchun ishlatiladi. Bu gapda hech qanday so’roq yo’q, balki xabar “kam” ni aytayotgan kishi o’z kuzatgan soni ko’p narsani bayon qilishini izohlayotgan bo’ladi.

Misol:

- (رَأَيْتُ مَجْتَهِدَ طَالِبٍ كَم!) qancha-qancha a’lochi talabalarni ko’rdim! ya’ni bu yerda juda ko’p a’lochi talabalarni ko’rganligi aytilmoqda.

2.2 Grammatik holati

Xabar beruvchi “kam” dan keyin kelgan so’z odatda “majrur” ya’ni tushum kelishigida bo’lib, -ni qo’shimchasi bilan kelad.

2.3 إِعْرَابُهُ (tahlili)

Misol: إقرأت كتاب كم – qancha-qancha kitoblarni o’qidim! ya’ni juda ko’p kitob o’qiganligini aytmoqchi.

- “كم”: xabar shaklida bo’lib, gap boshida kelyapti.

- “كتاب”: aniqlovchi bo’lib, majrur holatda ya’ni tushum kelishigida bo’lib, -ni qo’shimchasi bilan keladi.

- “قرأت”: fe’l (o’qidim).

2.4 Qo’llanilishi.

Xabar beruvchi “kam” (الخبرية كم) xabar berilayotgan gapning ko’pligini ifodalovchi uslubiy vosita sifatida qo’llanadi. Ko’pincha ajablanish, faxrlanish yoki shikoyat ifodalanadi.

3. So’roq va xabarni ifodalaydigan “kam” o’rtasidagi farqlar

Belgilari	So’roqni ifodalovchi “kam”	Xabarni ifodalovchi “kam”
Maqsadi	Savol berish (so’rash)	Aytilayotgan xabarni ko’p ekanligini aytish
Tamyiz holati	Mansub (to’ldiruvchi) bo’lib, -ni qo’shimchasi bilan kelad.	Majrur (tushum) kelishigida bo’lib, -ni qo’shimchasi bilan kelad.
Ma’no	Noma’lum sonni so’rash	Qilingan ishning sonini ko’p ekanligini aytish
Gap turi	So’roq gap	Xabar gap
Tahlili	Gapdagi o’rniga qarab	Odatda gap boshida kelib, muftado (ega) bo’ladi

4. Misollar

4.1 So’roq “kam”:

- (كَمْ قَلَمًا اشْتَرَيْتَ؟) nechta qalam sotib olding?

4.2 Xabar “kam”:

- (كَمْ قَلَمًا اشْتَرَيْتَ فِي هَذَا الشَّهْرِ؟) qancha-qancha qalam sotib oldim bu oyda! Ya’ni juda ko’p Qalam sotib olganligi haqida gapirmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “kam” so’zi arab tilida ko’p funksiyali bo’lib, ma’nosi uning ishlatilgan o’rniga bog’liq. So’roq “kam” – savol uchun, xabar “kam” esa ko’plikni ifodalash uchun

ishlatiladi. Arab tilini o'rganishda bu ikki tur o'rtasidagi farqni bilish muhim hisoblanadi. Qur'on karim, arab adabiyotlari va ilmiy matnlarni to'g'ri tushunish uchun bu farqlarni yaxshi bilish kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ne'matullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov, Abdulhakim Oripov. "Arab tili grammatikasi". (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik), Toshkent 2024, I-II.
2. Hifniy Nosir, Muhammad Diyab, Mustafu Tamum, Muhammadbek Solik. Ad-Durusun nahviya. Arab va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasi. Abdulqayum Hikmatov tarjimasi. Toshkent-2023.
3. أحمد إسكندر. "كيف تتقن النحو" مصر-2023م.
4. نور الدين عبد الرحمان الجامي. "ملا جامي". إستانبول 2015 م.
5. جمال الدين ابن هشام الأنصهري. "شرح شذور الذهب في معرفة كلام العرب". مصر 2020 م.
6. www.educationmag.net
7. www.researchgate.net
8. www.17-minute-languages.com